

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “SO’Z” SHE’RI BADIY TAHLILI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola o‘zbek adabiyotining atoqli vakili Aleksandr Arkadevich Faynbergning “So‘z” she’ri badiiy va falsafiy tahliliga bag‘ishlanadi. She’rda so‘zning nechog‘lik muhim ekanligi, uning inson hayotidagi o‘rni, vaqt va taqdir bilan o‘zaro bog‘liqligi masalasi falsafiy va badiiy jihatdan mohirlik bilan ifoda etilgan. Bu maqolada so‘zga bo‘lgan e’tibor, kechikkan so‘z qanday fojealarga sabab bo‘lishi hamda mas’uliyat haqidagi falsafiy qarashlar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Faynberg, so‘z, lirik qahramon, falsafa, kechikish, aytilmagan so‘z, mas’uliyat, ruhiyat, ma’naviyat adabiyot.

Aleksandr Arkadevich Faynberg- o‘zbek she’riyati va dramaturgiyasida chuqur falsafiy mohiyat, insoniy ruh va badiiy aniqlikni asarlarida mujassamlashtirgan ijodkorlardan sanaladi. U o‘z ijod yo‘lining har qaysi jabhasida so‘zni oddiy ifoda emas, balki inson ruhiy va ma’naviy dunyosini ochib berishga qodir kuchli qurol deb biladi. “So‘z” she’rida shoir insonlarga xos bo‘lgan befarqlik, unutish va javobgarlik hislarini va bu hislar qanday natijalarga olib kelishini ochiq bayon etishga astoydil harakat qiladi.

“So‘z” she’ri to‘rt banddan iborat bo‘lib, shoir uni turmushdagi oddiy kechikishlar bilan so‘zning kechikishini qiyoslash orqali boshlaydi:

“Poyezd kechikishi oddiy voqea,

Samolyotni kutib ichikadi ko‘z.

Haqiqiy baxtsizlik, katta fojea-

Mabodo kechiksa kutilyotgan so'z."

Bu satrlar orqali Faynberg so'zning vaqtida aytilishi qanchalik muhim ekanligiga ishora qiladi. Insonlar uchun siz u biz e'tiborsizlik qilgan shu holat kechikkan mehr, kechikkan afv, kechikkan minnatdorchilik va yoki kechikkan muhabbat ekanligini tushuntiradi va bunday bee'tiborlik, kechiktirishlar insonda ruhiy iztirobni keltirib chiqaradi.

She'ning keyingi bandlarida shoir kechikkan so'zning oqibati qanday bo'lishini fojeaviy manzara orqali tasvirlab beradi:

"Kechikkan gulxan uzra bo'lgandek pushmon,

Kimsasiz kulbaga boqqandek mahzun..."

Bu yerda kechikkan so'z pushaymonlik va yolg'izlik timsoliga aylanadi. Faynbergning lirik qahramoni so'zni inson ruhining ovozi deb hisoblaydi. Bu ovozning vaqtida yuzaga chiqmasligi, bora-bora uning ichkarida so'nishi, inson esa bu bo'shliqni his qilishiga sabab bo'ladi.

Shoir kechikkan so'z oqibatlarini tasvirlar ekan, "o'rmonlar yetim", "yerlarning peshonasi sho'r", "qabrlar jim" kabi ramziy ifodalarni ta'sirli tarzda ishlatadi.

"Kechikkan so'z bois o'rmonlar yetim,

Bepoyon yerlarning peshonasi sho'r."

Bu misralarni o'qir ekanmiz, kechikkan so'z emas, kechikkan mehr insoniyatni vayron qiluvchi asosiy omil ekanini tushunib yetamiz.

She'rda lirik qahramon so'z kechikishini "fojea" deya ta'riflaydi. Uning falsafasiga ko'ra, inson hayotida eng katta yo'qotish bu -kechikkan so'z.

"Qabrlar qoshida so'z ham beso'z, jim,

Ruhlar bezovta-yu qismat ko'zi ko'r."

Bu satrlarda hayotiy falsafa mujassamlashtirilgan: agar soʻz aytilmasa, u oʻzi bilan birga koʻmiladi, va bu soʻzga muhtoj ruhlar bezovta boʻlib qoladi.

Xulosa qilib aytganda Faynberg “Soʻz” sheʼrini chuqur maʼnaviy va falsafiy qarashlar, fikrlar asosida qogʻozga muhrlagan. Uning oʻqigan kitobxon shoir oʻquvchilarni soʻzga nisbatan masʼuliyatni his qilishga, uning qudratidan toʻgʻri va oqilona foydalanishga daʼvat etayotganini his qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Aleksandr Arkadevich Faynberg hayoti va ijodini oʻrganish boʻyicha Dastur va uslubiy qoʻllanma.
2. Faynberg A.A Soʻz// Tanlangan asarlar.- Toshkent; Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti.
3. Karimov S. Sheʼriyat va falsafa uygʻunligi.- Toshkent: Fan, 2002.
4. Omonov B. Lirik qahramon va soʻz falsafasi. - Toshkent: OʻzMU nashriyoti, 2014.